

OLIY TA’LIMDA TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISHDA MIKROO‘QITISH TEXNOLOGIYASINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Rashidova Oynisa Xusniddin qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti,

Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrası tayanch doktoranti

Email: aoynisaa@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22996076>

Annotatsiya. Maqolada talabalar mustaqil ta’limini kasbiy faoliyatga yo’naltirishda mikroo‘qitish texnologiyasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mustaqil ta’lim jarayonida nazariy bilimni qisqa dars fragmentini loyihalash, o‘tkazish, kuzatish, o‘zaro baholash va refleksiya bilan bog‘lash mikroo‘qitishning asosiy didaktik afzalligi sifatida asoslanadi. Maqolada talabalar uchun mikroo‘qitishga tayangan mustaqil ta’lim shakli taklif etilib, uning tayyorgarlik, mikro-dars, teskari aloqa, refleksiya va takomillashtirish bosqichlari yoritiladi. Shuningdek, mazkur texnologiyaning kommunikativ, metodik, refleksiv va faoliyatga oid kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, mikroo‘qitish, kasbiy kompetensiya, pedagogik refleksiya, teskari aloqa, dars loyihalash, o‘zaro baholash, metodik tayyorgarlik.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические возможности использования технологии микрообучения в организации самостоятельного обучения студентов с ориентацией на профессиональную деятельность. В качестве одного из ключевых дидактических преимуществ микрообучения обосновывается связь теоретических знаний с проектированием, проведением и наблюдением краткого фрагмента занятия, а также с взаимным оцениванием и рефлексией. В статье предлагается форма самостоятельного обучения, основанная на микрообучении, и раскрываются её основные этапы: подготовка, проведение микроурока, обратная связь, рефлексия и совершенствование деятельности. Кроме того, освещается роль данной технологии в развитии коммуникативных, методических, рефлексивных и деятельностных компонентов профессиональной компетентности.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, микрообучение, профессиональная компетентность, педагогическая рефлексия, обратная связь, проектирование занятия, взаимное оценивание, методическая подготовка.

Abstract. This article examines the pedagogical potential of microteaching technology in directing students’ independent learning toward professional practice. The integration of theoretical knowledge with the design, delivery, observation, peer assessment, and reflection of short lesson fragments is substantiated as one of the key didactic advantages of microteaching in the independent learning process. The article proposes a form of independent learning based on microteaching and describes its main stages, including preparation, micro-lesson delivery, feedback, reflection, and improvement. The role of this technology in developing communicative, methodological, reflective, and activity-based professional competencies is also discussed.

Keywords: *independent learning, microteaching, professional competence, pedagogical reflection, feedback, lesson planning, peer assessment, methodological preparation.*

KIRISH

Oliy ta’limda mustaqil ta’lim talabaning o’quv faoliyatini faqat auditoriyadan tashqarida bajariladigan topshiriqlar majmui sifatida emas, balki kasbiy rivojlanishni boshqarish mexanizmi sifatida tashkil etishni talab qiladi. Ayniqsa, talabalar uchun mustaqil ta’lim natijasi ma’lumotni o’zlashtirish bilan cheklanmasligi, u darsni rejalashtirish, maqsadni aniq qo’yish, o’quv materiallari va usulni tanlash, o’quvchi faoliyatini boshqarish hamda o’z ishini tahlil qilish kabi amaliy harakatlarda namoyon bo’lishi zarur. Shu sababli mustaqil ta’lim mazmunini kasbiy vazifalar bilan bog’lash bugungi pedagogik tayyorgarlikning muhim shartlaridan biridir. Mahalliy tadqiqotlarda ham mustaqil ta’limni zamonaviy shakl va metodlar, grafik organayzerlar hamda kasbiy yo’naltirilgan topshiriqlar bilan boyitish zarurati ta’kidlanadi [1].

Mikroo’qitish ana shu ehtiyojga javob beradigan texnologiyalardan biridir. U murakkab pedagogik faoliyatni boshqariladigan, qisqa va kuzatiladigan vaziyatga keltirib, talaba uchun nazariy bilimni amaliy harakatga aylantirish imkonini yaratadi. Zamonaviy tadqiqotlarda mikroo’qitish bo’lajak o’qituvchining kasbiy ko’nikmalarini amaliy vaziyatda mashq qilish va baholash vositasi sifatida talqin qilinadi [2]. Uning samarasi qisqa darsning o’zidan ko’ra aniq maqsad, kuzatish mezonlari, teskari aloqa va qayta ishlash imkoniyati bilan belgilanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — talabalar mustaqil ta’limini samarali tashkil etishda mikroo’qitish texnologiyasining pedagogik imkoniyatlarini ochib berish va uni mustaqil ta’lim topshiriqlariga integratsiya qilishning amaliy shaklini taklif etish. Maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo’lib, so’nggi yillardagi ilmiy manbalarni qiyosiy o’rganish, pedagogik tahlil, umumlashtirish va metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mikroo’qitish bo’lajak o’qituvchiga darsning muayyan jihatini kichik hajmda mashq qilish imkonini beradigan kasbiy tayyorgarlik texnologiyasidir. Unda vaqt, o’quv vazifasi va kuzatiladigan pedagogik ko’nikmalar cheklanadi. Talaba butun darsni bir vaqtning o’zida boshqarishga emas, balki maqsadni ochish, tushuntirish, savol berish, instruktsiya berish, o’quvchini faollashtirish yoki teskari aloqa kabi aniq harakatga e’tibor qaratadi. Zaxarova mikroo’qitishni professional kompetensiyalarni shakllantirish va baholashning faoliyatga yo’naltirilgan vositasi sifatida ko’rsatadi [3]; zamonaviy rus tadqiqotlarida ham uning bo’lajak o’qituvchini amaliy faoliyatga yaqinlashtiruvchi xususiyati qayd etiladi [4].

Mustaqil ta’lim bilan mikroo’qitishning uyg’unligi ularning ichki mantiqida ko’rinadi: talaba maqsad qo’yadi, resurs tanlaydi, reja tuzadi, amaliy harakatni bajaradi va natijani baholaydi. Shu sababli mikroo’qitish MT mahsulotini referat yoki taqdimotdan amaliy pedagogik faoliyatga ko’chiradi. Pekdağ va hammualliflar mikroo’qitishning bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik bilimlari va kasbiy rivojlanishiga xizmat qilishini ko’rsatgan [5]. Hama va Osam esa chet tili o’qituvchilarini tayyorlashda mikroo’qitish kommunikatsiya, hamkorlik va refleksiyaning kuchaytirishi mumkinligini ta’kidlaydi [6]. Demak, uning didaktik qiymati darsning qisqaligida emas, balki faoliyatning kuzatilishi, tahlil qilinishi va takomillashtirilishidadir.

METODOLOGIYA

Talabalarning mustaqil ta’limida mikroo’qitishni bir martalik namoyish darsi sifatida emas, balki takrorlanuvchi pedagogik sikl ko’rinishida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda topshiriqning har bir bosqichi talabaning mustaqil qaror qabul qilishi va kasbiy harakatini asoslashiga xizmat qiladi. Quyidagi besh bosqichli sikl Umumiy pedagogika doirasidagi mustaqil ta’lim topshiriqlariga ham moslashtirilishi mumkin.



1-rasm. Mikroo’qitish texnologiyasi asosida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish jarayoni

1-rasmda berilgani kabi taklif etilayotgan sikl besh bosqichdan iborat: tayyorgarlikda talaba mavzu, maqsad va 5–7 daqiqalik mikro-dars rejasini mustaqil tuzadi; mikro-dars bosqichida tanlangan metodni tengdoshlar oldida amalda qo'llaydi; kuzatish va teskari aloqada oldindan berilgan mezonlar bo'yicha dalilga tayangan fikrlar olinadi; refleksiyada talaba muvaffaqiyatli va takomillashtirilishi kerak bo'lgan jihatlarni aniqlaydi; yakuniy bosqichda esa mikro-dars rejasi qayta ishlanadi yoki zarur holatda takroriy mikro-dars o'tkaziladi. Bu sikl rejalashtirish, pedagogik muloqot, baholash madaniyati, o'zini tahlil qilish va korreksiya ko'nikmalarini bir topshiriqda birlashtiradi.

Mazkur siklda mikro-darsning 5–7 daqiqalik bo'lishi talabaning mazmunni ixchamlashtirish, asosiy fikrni tanlash va vaqtni boshqarish ko'nikmalarini faollashtiradi. Biroq vaqtni qisqartirish mazmunni soddalashtirish degani emas. Talaba qisqa formatda ham aniq o'quv maqsadini ifodalashi, faoliyatni maqsadga mos qurishi va yakunda o'rganilgan natijani tekshirishi kerak. Shu jihatdan mikroo'qitish mustaqil ta'lim topshirig'ini "tayyor mahsulot topshirish" modelidan "kasbiy faoliyatni rejalashtirish – bajarish – tahlil qilish – qayta qurish" modeliga olib o'tadi.

Talabalar uchun mikro-darsning til jihati ham alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi nutqi, instruktsiyaning aniqligi, savollarning mantiqiyliigi, o'quvchini javobga undovchi replikalar va xatoga munosabat kelajakdagi dars sifatiga bevosita ta'sir qiladi. So'nggi tizimli sharhlar mikroo'qitishning amaliy ko'nikmalar, didaktik harakat, refleksiya va kasbiy o'zini anglash uchun imkoniyat yaratishini ko'rsatadi [7]. Ushbu xulosalar talabalar tayyorgarligida ham mikroo'qitishni refleksiya, didaktik harakat va kasbiy o'zini anglash bilan bog'lash zarurligini

ko’rsatadi. Bu natijalar mustaqil ta’limni mikroo’qitish bilan integratsiyalashtirishda refleksiya va qayta aloqa bosqichlarini majburiy element sifatida ko’rish zarurligini asoslaydi.

Birinchidan, mikroo’qitish talabani metodik qarorlarini ko’rinadigan holga keltiradi. Yozma topshiriqda metod nomini to’g’ri keltirish yetarli bo’lishi mumkin, mikro-darsda esa maqsad, vaqt, instruktsiya, metod va tinglovchi faolligi o’rtasidagi muvofiqlik amalda namoyon bo’ladi. Shu sababli u metodik bilimni real harakat orqali tekshiradi va talabani mustaqil qaror qabul qilishini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, mikroo’qitish kommunikativ kompetensiyani kasbiy qirrasini rivojlantiradi. Talabalar tushunarli instruktsiya berish, maqsadli savol tuzish, javobni davom ettirishga undash va pedagogik ohangni saqlashni mashq qiladi. Tadqiqotida talab nutqi tarkibi pedagogik vazifaga qarab farqlanishi aniqlangan [8]. Shuning uchun mikro-darsda nafaqat mazmun, balki ingliz tilidagi pedagogik nutqning maqsadga muvofiqligi ham kuzatilishi lozim.

Uchinchidan, mikroo’qitish refleksiv kompetensiyani kuchaytiradi. Talaba videoyozuvni qayta ko’rish, kuzatuv varaqasi va tengdosh fikrlarini solishtirish orqali o’z faoliyatiga dalillar asosida baho beradi. So’nggi tizimli sharh mikroo’qitish didaktik harakat, amaliy ko’nikma va refleksiyani birlashtiruvchi tayyorgarlik vositasi ekanini ko’rsatadi. Refleksiya tashqi bahoni takrorlash emas, “qaysi qaror nima uchun ishladi va nimani o’zgartirish kerak?” degan savolga asoslangan kasbiy tahlil bo’lishi kerak.

Mikroo’qitish topshirig’ini baholash va amaliy tashkil etish

Mikroo’qitish MT shakli sifatida qo’llanganda baholash mezonlari talaba uchun oldindan ochiq bo’lishi kerak. Amaliyotda oltita mezon yetarli: 1) maqsadning aniqligi; 2) mazmun va metod uyg’unligi; 3) pedagogik nutq va instruktsiyaning tushunarligi; 4) tinglovchi faolligini tashkil etish; 5) vaqtni boshqarish; 6) refleksiya va korreksiya. Yakuniy ballni markazga qo’yishdan ko’ra, talaba keyingi urinishda takomillashtirishi kerak bo’lgan 1–2 aniq jihatni belgilash rivojlantiruvchi xususiyatni kuchaytiradi.

Umumiy pedagogika doirasida mikro-dars “Ta’lim metodlari”, “Darsning tuzilishi”, “Pedagogik diagnostika”, “Ta’limni boshqarish” yoki “Elektron pedagogika” kabi mavzularda berilishi mumkin. Talabani vazifasi mavzuni qayta aytish emas, muayyan tushunchani tengdoshlariga pedagogik usul orqali o’rgatishdir. 5–7 daqiqalik modelda 1 daqiqa kirish, 3–4 daqiqa asosiy faoliyat, 1 daqiqa amaliy misol va 1 daqiqa yakun uchun ajratilishi mumkin. Bu chegaralar qat’iy qolip emas, balki mazmunni saralash va vaqtni boshqarishni mashq qildirishga xizmat qiladi.

Mikroo’qitish boshqa mustaqil ta’lim shakllarini almashtirmaydi; manba tahlili, grafik organayzer, loyiha va portfolio nazariy tayyorgarlikni ta’minlash, mikroo’qitish ularning natijasini kasbiy vaziyatda namoyon etadi. Shu sababli uni mazmunni amalda qo’llash, o’z faoliyatini baholash va korreksiya qilishni talab etadigan mustaqil ta’lim topshirig’i sifatida qo’llash maqsadga muvofiq.

XULOSA

Mikroo’qitish texnologiyasi talabalar mustaqil ta’limni kasbiy faoliyatga yaqinlashtirish uchun muhim pedagogik imkoniyatga ega. Uning kuchli tomoni talabani mustaqil tayyorgarligi, amaliy harakati, kuzatuv, teskari aloqa, refleksiya va takomillashtirishini yagona siklda birlashtirishidir. Natijada mustaqil ta’lim nazariy ma’lumotni o’zlashtirishdan metodik qaror

qabul qilish, pedagogik muloqot, vaqtni boshqarish va o‘z faoliyatini tahlil qilish kabi kasbiy vazifalarni bajarishga yo‘naltiriladi.

Taklif etilgan besh bosqichli model — tayyorgarlik, mikro-dars, kuzatish va teskari aloqa, refleksiya hamda takomillashtirish — Umumiy pedagogika fanidagi mustaqil ta’lim topshiriqlariga moslashtirilishi mumkin. Uning samaradorligi aniq baholash mezonlari, xavfsiz teskari aloqa muhiti va takroriy korreksiya imkoniyatiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rashidova O. K., Begmatova D., Rashidov A. E. AI-assisted Independent Learning Model in Education of Industry 4.0 //2026 International Russian Smart Industry Conference (SmartIndustryCon). – IEEE, 2026. – C. 308-313.
2. Rashidova O. et al. AI-Integrated LMS Module for Automated Speaking Assessment: An Applied Framework for Communicative Competence Evaluation //Proceedings of the International Conference on Applied Innovations in IT (ICAIIIT). – 2026.
3. Захарова Е.А. Технология микрообучения: эффективный инструмент формирования и оценки профессиональных компетенций будущих учителей // Kant. – 2021. – № 2 (39). – С. 328–332. DOI: 10.24923/2222-243X.2021-39.56.
4. Акмуллаева Л.Р. Микрообучение в подготовке будущих учителей начальных классов // Перспективы науки. – 2025. – № 10 (193).
5. Pekdağ B., Dolu G., Ürek H., Azizoğlu N. Exploring On-Campus and in Real School Classroom Microteaching Practices: The Effect on the Professional Development of Preservice Teachers // International Journal of Science and Mathematics Education. – 2021. – Vol. 19. – P. 1145–1166. DOI: 10.1007/s10763-020-10109-2.
6. Hama H.Q., Osam Ü.V. Revisiting Microteaching in Search of Up-to-Date Solutions to Old Problems // SAGE Open. – 2021. – Vol. 11, Issue 4. DOI: 10.1177/21582440211061534.
7. Iliasova L., Nekrasova I., Mena J., Estrada-Molina O. Microteaching on pre-service teachers’ education: literature review // Frontiers in Education. – 2025. – Vol. 10. – Article 1562975. DOI: 10.3389/educ.2025.1562975.
8. Rashidova O. The use of innovative methods and tools in the organization of independent education in higher educational institutions as a pedagogical problem //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 10. – C. 261-270.